

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12. I.08.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BOLTAYEV JASURBEK G‘ULOMOVICH

**BUXORO VILOYATI IQTISODIY RIVOJLANISHINING HUDUDIIY
MARKETING MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
in economic sciences**

Boltayev Jasurbek G‘ulomovich

Buxoro viloyati iqtisodiy rivojlanishining hududiy marketing mexanizmini
takomillashtirish.....3

Болтаев Жасурбек Гулямович

Совершенствование механизма территориального маркетинга
экономического развития Бухарской
области..... 25

Boltaev Jasurbek G‘ulomovich

Improving the regional marketing mechanism for the development of the economy
of the Bukhara region.....49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 54

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12. I.08.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BOLTAYEV JASURBEK G‘ULOMOVICH

**BUXORO VILOYATI IQTISODIY RIVOJLANISHINING HUDUDIIY
MARKETING MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.11 – Marketing

**Iqtisodiyot fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Iqt5818 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xamidov Obidjon Xafizovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ibragimov Nutfillo Salimovich
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Muxsinov Bekzod Toxirovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.I.08.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "13" avgust soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 220114, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel./faks: 0 (365) 221-29-14, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 220114, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel.: 0 (365) 221-25-87, e-mail: buxdu_arm@umail.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "23" iyul kuni tarqatildi.
(2026-yil "23" iyul dagi 8/26 raqamli reyestr bayonnomasi).



B.N. Navruz-Zoda

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

D.Sh.Yavmutov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

A.O.Ochilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda mintaqalar o'rtasida investitsiyalar, yuqori qo'shilgan qiymatli sanoat tarmoqlari, xizmatlar sohasi va turizm oqimlari uchun keskin raqobat kechayotgan bir sharoitda hududiy marketing konsepsiyasi iqtisodiy siyosatning alohida yo'nalishiga aylanmoqda. UN DESA baholariga ko'ra, bugungi kunda dunyo aholisining 55 foizi shaharlarda yashaydi, 2050 yilga borib ushbu ulush 68 foizga yetadi¹. Xizmatlar sektori 2024 yilda global YaIMning 66,2 foizini va bandlikning qariyb 50 foizini ta'minlagan bo'lib, jahon iqtisodiy o'sishining asosiy strukturaviy drayveriga aylangan². Shu bilan birga, Jahon banki hisob-kitoblari 2024 yilda qariyb 700 mln kishi hanz kuniga 2,15 dollar darajadan past sharoitda yashayotganini ko'rsatadi³. Bunday sharoitda hududlarni oddiy ma'muriy birlik emas, balki brend va investitsion mahsulot sifatida boshqarish zarurati ortib, hududiy marketing hududning ixtisoslashuvi, raqobat ustunliklari va brend identitetini ilmiy asosda shakllantiruvchi yondashuv sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa yangi ilmiy yondashuvlarni talab etadi.

Jahonda hududlar iqtisodiyotini barqaror o'sishi, global qiymat zanjirlariga integratsiyasi va raqobatbardoshligini oshirish jarayonida hududiy marketing, place marketing va place branding yondashuvlariga tayangan holda hududlarni innovatsion, investitsion va turistik markaz sifatida shakllantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda hududlarning investitsion va turistik jozibadorligini oshirish, hududiy brendni shakllantirish va boshqarish, iqtisodiy ixtisoslashuv va klasterlashuvni hududiy marketing strategiyalari bilan uyg'unlashtirish, raqamli marketing va kommunikatsiya kanallari orqali hududlarning global informatsion makondagi ko'rinishchanligini kuchaytirish, hududiy marketingning iqtisodiy, kommunikatsion, raqamli va institutsional komponentlari o'zaro ta'sirini kompleks baholash, shuningdek, hududiy marketing mexanizmlarini mintaqaviy inklyuziv rivojlanish va kambag'allikni qisqartirish bilan bog'laydigan strategiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb ilmiy muammolar sirasiga kiradi.

Yangi O'zbekistonda hududlar iqtisodiyotini barqaror va inklyuziv rivojlantirish, ularning raqobatbardoshligini oshirish hamda har bir hududning resurs va salohiyatiga tayangan holda iqtisodiy o'sishni ta'minlash masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan bo'lib, bu jarayon hududiy marketingning ilmiy asoslangan yondashuvlarini ishlab chiqish zaruratini keskin kuchaytirmoqda. Xususan, 2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida⁴ hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy

¹ United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division. World Urbanization Prospects: The 2018 Revision. – New York: United Nations, 2019. – 126 p.

² World Trade Organization. Trade in Services for Development: The Future of Trade Lies in Services. – Geneva: WTO, 2023. – 108 p.

³ World Bank. Poverty, Prosperity, and Planet: 2024 Report. – Washington, DC: World Bank, 2024. – 180 p.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, <https://lex.uz/docs/-5841063>;

rivojlantirish, tarmoqlarni diversifikatsiyalash, xizmatlar va turizm ulushini oshirish, investitsion va eksport salohiyatini kengaytirish, raqamli infratuzilma va boshqaruv tizimlarini jadal rivojlantirish bo'yicha aniq maqsad va vazifalar belgilangan bo'lib, bu esa hududiy brendlar va marketing strategiyalarini shakllantirish, hududlarning investitsion, turistik va kommunikatsion jozibadorligini baholash hamda boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarning dolzarbligini asoslab beradi.

Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasida hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, hududiy boshqaruv samaradorligini oshirish va hududiy marketing tamoyillariga asoslangan yangi boshqaruv yondashuvlarini shakllantirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar bilan uzviy bog'liqdir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida" Farmonlari, shuningdek 2020-yil 1-maydagi PQ-4702-son "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida" va 2021-yil 13-avgustdagi PQ-5223-son qarori shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 12-avgustdagi PQ-287-son "Buxoro viloyatida kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, xizmat ko'rsatish va turizmni rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori talablari hududiy tahlil va marketing mexanizmlarini ilmiy asoslash zaruratini yanada kuchaytirib, mazkur dissertatsiya natijalari ushbu normativ-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishda sezilarli darajada yordam beradi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hududiy marketing va hududlar iqtisodiy rivojlanishida raqobatbardoshlikni oshirishning nazariy hamda uslubiy jihatlar masalalari xorijiy ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan bo'lib, xususan F.Kotler, D.Haider, I.Rein, S.Anholt, M.Porter, S.Rainisto, G.J.Ashworth, H.Voogd, A.Kavaratzis, J.T.Sayago Gomez, C.Stair, K.Frenken, F.Van Oort, T.Verburg, G.G.F.de Almeida, D. Foray va N. Malxotra⁵ kabi olimlarning ishlarida

⁵ Kotler P., Haider D., Rein I. Marketing Places. Attracting Investment, Industry and Tourism to Cities, States, and Nations. New York: The Free Press, 1993. 388 p.; Anholt S. Competitive Identity. The New Brand Management for Nations, Regions and Cities. Basingstoke: Palgrave Macmillan, 2006. 134 p.; Porter M. E. The Competitive Advantage of Nations. — New York: Free Press, 1990. — 855 p.; Rainisto S. K. Success Factors of Place Marketing. A Study of Place Marketing Practices in Northern Europe and the United States. Doctoral Dissertation. Espoo: Helsinki University of Technology, 2003. 240 p.; Ashworth G.J., Voogd H. Selling the City: Marketing Approaches in Public Sector Urban Planning. — London: Belhaven Press, 1990. — 205 p.; Kavaratzis A. From City Marketing to City Branding: Towards a Theoretical Framework for Developing City Brands // Place Branding. — 2004. — Vol. 1, No. 1. — P. 58–73.; Sayago Gomez J. T., Stair C. Location Quotient, Coefficient of Specialization and Shift-Share // Regional Research Institute Technical Documents. 2017. №10. URL: https://researchrepository.wvu.edu/rri_tech_docs/10; Frenken K., Van Oort F., Verburg T. Related Variety, Unrelated Variety and Regional Economic Growth // Regional Studies. — 2007. — Vol. 41, No. 5. — P. 685–697.; de

hududni bozor subyekti sifatida talqin qilish, hududiy brending, pozitsiyalash, ixtisoslashuv, klasterlashuv va hududlar o'sish omillarini baholashning turli konseptual yondashuvlari ishlab chiqilgan.

Hududiy marketingni mintaqaviy iqtisodiy siyosat, raqamli iqtisodiyot va hududiy boshqaruv bilan integratsiyalash masalalari MDH olimlari tomonidan ham tadqiq qilingan. Jumladan, O. T. Ergunova, T. I. Razinkova, N. Yu. Vlasova va E. S. Kulikova, T.S. Romanishina hamda V.I. Belyayev va hammualliflar⁶ ishlarida hududiy marketingning investitsion va kommunikatsion jozibadorlikni oshirish, hudud brendini shakllantirish, raqamli vositalardan foydalanish hamda ijtimoiy-infratuzilmaviy rivojlanishdagi o'rni tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlar hududiy marketing nazariyasini boyitgan bo'lsa-da, uni iqtisodiy ixtisoslashuv va amaliy boshqaruv mexanizmlari bilan integrallashgan holda baholash masalasi to'liq yechim topmagan.

Mamlakatimizda esa hududiy marketing, hududlar raqobatbardoshligini oshirish va investitsion jozibadorlikni shakllantirish masalalari O.X.Xamidov, B.N.Navruz-zoda, Navruz-zoda L.B. N.S.Ibragimov, D.Sh.Yavmutov, S.Sh.Mirziyoyeva, I.S.Abdullayev, M.T.Alimova, N.B.Giyazova, M.A.Rajabova hamda I.E.Tursunov⁷ kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida yoritilgan. Ushbu mualliflarning ilmiy ishlari hududiy marketingning nazariy asoslari, hududlar raqobatbardoshligini baholash, investitsion va turistik jozibadorlik omillari,

Almeida G. G. F. Territorial brand in regional development: interdisciplinary discussions //Encyclopedia. – 2023. – T. 3. – №. 3. – С. 870-886.; Foray D. Smart Specialisation. Opportunities and Challenges for Regional Innovation Policy. London: Routledge, 2015. 122 p.; Malhotra N. K. Marketing Research. An Applied Orientation. 7th ed. Harlow: Pearson, 2015. 896 p.

⁶ Ергунова О. Т. Маркетинг территории : учеб. пособие / О. Т. Ергунова ; Министерство образования и науки Российской Федерации, Уральский федеральный университет. – Екатеринбург : Издательство Уральского университета, 2017. – 136 с.; Разинкова, Т. И. Маркетинг устойчивого развития территории как фактор ее социально-экономических преобразований: автореф. дис. ... канд. экон. наук: Региональная и отраслевая экономика (маркетинг). — Ростов-на-Дону: РГЭУ (РИНХ), 2024.; Власова Н. Ю., Куликова Е. С. Маркетинг территории в условиях становления цифровой экономики //Journal of new economy. – 2018. – Т. 19. – №. 3. – С. 69-81.; Романишина, Т. С. Маркетинг территории в социально-инфраструктурном развитии регионов России в условиях цифровизации: дис. ... д-ра экон. наук: 08.00.05. Экономика и управление народным хозяйством (маркетинг). — Ростов-на-Дону: РГЭУ (РИНХ), 2021; Беляев В. И., Кузнецова О. В., Пяткова О. Н., Рудакова О. Ю. Региональная экономика и маркетинг территорий: Методология междисциплинарных исследований // Экономика Профессия Бизнес, 2023. № 4. С. 14-22.

⁷ Khamidov O. New stage of tourism development in Uzbekistan: actual problems and perspectives //World Scientific News. – 2017. – Т. 86. – №. 3. – С. 134-149.; Navruz-Zoda B.N., Navruz-zoda L.B. “Marketing asoslari”. o`quv qo`llanma. – Buxoro: BDU nashriyoti, 2023, - 185-b.; Ibragimov N. S. “Digital divide” as a factor of destination competitiveness of Uzbekistan’s tourism sphere //Central Asian Problems of Modern Science and Education. – 2020. – Т. 2020. – №. 3. – С. 36-47.; Yavmutov D.Sh., “Yashil iqtisodiyot”ga o'tish sharoitida mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro – 2025. 72-bet.; Мирзиёева С. III. Анализ опыта Узбекистана по разработке стратегий национального и регионального развития // Administrative Consulting (Административное консультирование). — 2019. — № 1. — С. 18–33. URL: <https://www.acjournal.ru/jour/article/viewFile/1058/1009>; Abdullayev I.S. Mintaqaviy iqtisodiy tizimni optimal tartibga solishning mexanizmlarini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dis. avtoref. – Toshkent: TDIU, 2017. – 66 b. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – S.: SamISI, 2017. – 265 b.; Giyazova N.B.Raqobat ustunligi asosida to'qimachilik korxonalari barqaror rivojlanish marketing strategiyasini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro: BuxDU, 2023.; Rajabova M. A. Sanoat korxonalarida raqamli marketing faoliyatini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro: BuxDU, 2025.; Турсунов И. Э., Хамроев Г. С. Перспективы инновационного развития регионов Республики Узбекистана //Мировая наука.–2024.–№2 (83). – С. 131-141.

raqamli tafovutning hududiy taraqqiyotga ta'siri hamda O'zbekistonda milliy va mintaqaviy strategiyalarni shakllantirish masalalarini har tomonlama yoritib bergan bo'lsa-da, hududiy marketingni integral indekslar va kompleks boshqaruv mexanizmlari orqali baholash va takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha ilmiy tadqiqotlar zarurligini ko'rsatadi.

Mavjud ilmiy manbalarda hududiy marketingning ayrim elementlari alohida yo'nalishlarda o'rganilgan bo'lsa-da, ularni muayyan hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari bilan uzviy bog'liq kompleks tizim sifatida tadqiq etish yetarli darajada shakllanmagan. Buxoro viloyati misolida tarixiy iqtisodiy tuzilma, tarmoqlararo nomutanosibliklar, transport-logistika salohiyati, turizm va xizmatlar sektori dinamikasi hamda raqamli infratuzilmaning hududlar kesimidagi farqlari alohida ilmiy yondashuvni talab etadi. Xorijiy va MDH tadqiqotlarida hududiy marketing, raqobatbardoshlik va brending konsepsiyalari ishlab chiqilgan bo'lsa-da, O'zbekiston sharoitida hududlararo assimetriyalarni hisobga olgan holda iqtisodiy resurslarni boshqarish, kommunikatsion faollikni kuchaytirish, investitsion jozibadorlik va institutsional salohiyatni oshirishga qaratilgan integratsiyalashgan mexanizmning ilmiy-metodik asoslari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Tadqiqotda "hududiy marketing" tushunchasi hududiy siyosat, regional iqtisodiyot, strategik boshqaruv va hududiy rivojlanish boshqaruvi kabi yaqin kategoriyalardan metodologik jihatdan delimitatsiya qilinib, u hududni segmentlash, pozitsiyalash, qiymat taklifini shakllantirish, brendlash va strategik kommunikatsiya orqali investorlar, turistlar, rezidentlar hamda biznes subyektlari qarorlariga ta'sir ko'rsatuvchi alohida boshqaruv mexanizmi sifatida asoslandi. Bu yondashuv hududiy marketingning nazariy chegaralarini aniqlashtirish va keyingi empirik modellarni izchil asoslash imkonini berdi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Buxoro viloyati iqtisodiy rivojlanishining hududiy marketing mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

hududiy marketing tushunchasi, mohiyati, vazifalari va asosiy tamoyillarini ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish;

iqtisodiy rivojlanish omillari bilan hududiy marketing o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash va asoslash;

xorijiy mamlakatlar tajribasida hududiy marketing model va konsepsiyalarining rivojlanishini umumlashtirish;

Buxoro viloyatining iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlarini tizimli tahlil qilish va asosiy tendensiyalarini aniqlash;

Buxoro viloyati tumanlarining tarmoqlar bo'yicha ixtisoslashuvi va barqaror o'sish dinamikasini empirik baholash;

hududiy marketing samaradorligini integrallashgan indekslar asosida baholash, hududlar tipologiyasini ishlab chiqish va empirik asoslash;

hududiy marketing rivojlanishi va iqtisodiy ixtisoslashuvga ta'sir etuvchi omillar asosida ekonometrik modelni ishlab chiqish hamda 2030-yilgacha prognoz ko'rsatkichlarini shakllantirish;

Buxoro viloyati sharoitida hududiy marketing strategiyasining ustuvor yo'nalishlari hamda integrallashgan modelini ishlab chiqish;

hududiy marketingning tashkiliy, iqtisodiy va raqamli mexanizmlarini takomillashtirish va joriy etish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Buxoro viloyatining iqtisodiy rivojlanishida hududiy marketing mexanizmining shakllanishi va amal qilish jarayonlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti sifatida Buxoro viloyatining iqtisodiy rivojlanishida hududiy marketing mexanizmini takomillashtirishga oid tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar, usullar va boshqaruv vositalari majmui belgilandi.

Tadqiqotning usullari. Mazkur dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, taqqoslash, induksiya va deduksiya, ekspertlar usuli, statistik tahlil, tizimli yondashuv, klasterlash, ekspert baholash, indeksli usul hamda iqtisodiy-matematik va ekonometrik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“hududiy marketing” atamasining iqtisodiy mazmuni tabiiy-hududiy tuzilma, iqtisodiy ixtisoslashuv, madaniy meros, fuqarolik ishtiroki omillari ta'siriga asoslangan holda, hududiy salohiyatni maqsadli auditoriyalar uchun qiymat taklifiga aylantirish va brendlashtirish nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

hududiy marketing samaradorligini baholash uslubiyoti tarkibiy iqtisodiy subindeks (ECON_norm) va kommunikatsion subindeks (COMM_norm) hamda raqamli marketing va hududiy brending ko'rsatkichlarini Min-Max muvofiqlashtiruvchisi asosida yagona kompozit ko'rsatkichga integratsiyalovchi, hududlar holatini vaqt (dinamik) va hududlararo (fazoviy) kesimlarda qiyosiy baholash imkonini beruvchi universal analitik qiymat sifatida Hududiy marketing samaradorligi indeksi (HUDMI) asosida takomillashtirilgan;

hududlarning marketing salohiyati, iqtisodiy ixtisoslashuvi va tarmoqlar rivojlanish dinamikasini kompleks hisobga oluvchi, hududlarni strategik kvadrantlar bo'yicha tipologiyalash hamda ular uchun differensial hududiy marketing strategiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi HUDMI va LQ ko'rsatkichlari integratsiyalashuviga asoslanuvchi boshqaruv mexanizmi ishlab chiqilgan;

Buxoro viloyati hududlarida iqtisodiy ixtisoslashuv va hududiy marketing rivojlanish dinamikasi hamda unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ekonometrik modeli asosida hududlar va tarmoqlar kesimida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

viloyat va tumanlar kesimida investitsion faollik, bandlik dinamikasi, tadbirkorlik rivoji, raqamli marketing va hududiy brending ko'rsatkichlarini yagona tizimda baholash, zaif va ustuvor hududlarni aniqlash hamda ularni qiyosiy tahlil qilish imkonini beruvchi Hududiy Marketing Samaradorligi Indeksi

(HUDMI) va uni hisoblash metodikasi amaliy diagnostika vositasi sifatida ishlab chiqilgan.

HUDMI va tarmoq ixtisoslashuvi ko'rsatkichlari (LQ, Δ LQ, CAGR) integratsiyasiga asoslangan HUDMI–LQ Mixed Model yordamida hududlarni to'rtta strategik kvadrant bo'yicha tipologiyalash va har bir kvadrant uchun eksport, diversifikatsiya, raqamli transformatsiya va institutsional islohotlarga yo'naltirilgan maqsadli strategik paketlarni shakllantirish metodikasi ishlab chiqilgan.

HUDMI indeksini shakllantirish, HUDMI–LQ kvadrantlari asosida ustuvor yo'nalishlarni tanlash, strategiya bloklari (eksport, xizmatlar, infratuzilma, brending), shuningdek KPI–monitoring–risk siklini o'z ichiga olgan besh bosqichli hududiy marketing boshqaruv modeli hududiy rivojlanish dasturlariga integratsiya qilish uchun amaliy vosita sifatida ishlab chiqilgan.

empirik hisob-kitoblar asosida Buxoro viloyati tumanlarining HUDMI va LQ profillari, ularning iqtisodiy va kommunikatsion salohiyati, ixtisoslashuv darajasi hamda hududiy marketing nuqtayi nazaridan kuchli va zaif pozitsiyalari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlar jarayonida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Jahon Banki, Turizm va sayohatlar bo'yicha jahon kengashi (WTTC), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) rasmiy ma'lumotlar bazasidan foydalanilganligi, qo'llanilgan ilmiy yondashuv va usullarning maqsadga yo'naltirilganligi va ilmiy asoslanganligi, vakolatli tashkilotlarning keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalardan amaliyotda samarali foydalanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, unda “hududiy marketing” tushunchasining iqtisodiy mazmuni O'zbekiston sharoitiga mos ravishda qayta talqin qilinib, ma'muriy-hududiy tuzilma, tarmoq ixtisoslashuvi, madaniy meros va fuqarolik ishtirokchiligi omillari bilan boyitilgan, iqtisodiy va kommunikatsion subindekslarni integratsiyalovchi HUDMI kompozit indeksi, HUDMI–LQ Mixed Model hamda HUDMI asosidagi besh bosqichli hududiy marketing modeli orqali hududiy marketingni miqdoriy baholash, hududlarni tipologiyalash va differensial strategiyalar ishlab chiqishning yaxlit nazariy-metodik asoslari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan HUDMI indeksi, HUDMI–LQ Mixed Model va ko'p bosqichli boshqaruv arxitekturasidan hududiy rivojlanish siyosatini rejalashtirish, monitoring qilish va baholash jarayonlarida, viloyat va tumanlar kesimida investitsion faollik, bandlik, tadbirkorlik, raqamli marketing va brending ko'rsatkichlarini tahlil qilish, ustuvor hududlar bo'yicha maqsadli “yo'l xaritalari”ni shakllantirishda, shuningdek “Hududiy marketing”, “Mintaqaviy iqtisodiyot” kabi fanlar bo'yicha ishchi o'quv dasturlari, darslik va o'quv qo'llanmalarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Buxoro viloyati iqtisodiy rivojlanishining hududiy marketing mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy natijalar asosida:

“hududiy marketing” tushunchasining metodologik chegaralari hududiy siyosat, regional iqtisodiyot, strategik boshqaruv va hududiy rivojlanish boshqaruvi kabi yaqin kategoriyalar bilan funksional jihatdan delimitatsiya qilinib, uning hududiy rivojlanishning iqtisodiy, institutsional va kommunikatsion komponentlarini bog'lovchi maxsus boshqaruv mexanizmi sifatidagi ilmiy maqomi sifatida aniqlashtirishga oid takliflardan “Marketing va bozor tahlili” o'quv qo'llanmasi matnini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2025-yil 4-noyabrda 653-U-sonli buyrug'i, ro'yxatga olish raqami 653-41 sonli guvohnoma). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda hududiy marketing konsepsiyasi, hududlar raqobatbardoshligini baholash hamda mintaqaviy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga erishish imkoni yaratilgan. Tadqiqot ishi natijalari “Marketing va bozor tahlili” fani mazmunini takomillashtirish va o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan;

hududiy marketing samaradorligini baholashning nazariy-metodik yondashuvi takomillashtirilib, tarkibiy iqtisodiy subindekslar (ECON_norm) va kommunikatsion subindekslar (COMM_norm), shu jumladan raqamli marketing hamda hududiy brending ko'rsatkichlarini Min–Max normallashtirish asosida yagona kompozit ko'rsatkichga integratsiyalovchi Hududiy Marketing Samaradorligi Indeksi (HUDMI) ishlab chiqilgan hamda uning hududlar holatini vaqt (dinamik) va hududlararo (fazoviy) kesimlarda qiyosiy baholash imkonini beruvchi universal analitik vosita sifatidagi qo'llanishi taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buxoro viloyatida kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, xizmat ko'rsatish va turizmni rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2024-yil 12-avgustdagi 287-son qarorining 2- va 3-bandlarini ishlab chiqishda foydalanilgan.(O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2026-yil 13-apreldagi 01-04-22-3496-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududlar kesimida loyihalarni ustuvorlashtirish hamda marketing samaradorligini baholashning yagona analitik asosi shakllantirilgan;

HUDMI va LQ ko'rsatkichlarini integratsiyalash asosida hududlarning marketing salohiyati, iqtisodiy ixtisoslashuvi va tarmoqlar rivojlanish dinamikasini kompleks hisobga oluvchi, hududlarni strategik kvadrantlar bo'yicha tipologiyalash hamda ular uchun differensial hududiy marketing strategiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi boshqaruv mexanizmidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Buxoro viloyatida kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, xizmat ko'rsatish va turizmni rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2024-yil 12-avgustdagi 287-son qarorining 3-, 4- va 8-bandlarida ijro mexanizmlarini shakllantirishda foydalanilgan.(O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2026-yil 13-apreldagi 01-04-22-3496-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklif amaliyotga joriy etilishi natijasida hududlar

kesimida loyihalarni ustuvorlashtirishda marketing samaradorligini baholashga xizmat qiluvchi yagona analitik-boshqaruv mexanizmi shakllantirilgan.

Buxoro viloyati hududlarida iqtisodiy ixtisoslashuv va hududiy marketing rivojlanish dinamikasi hamda unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ekonometrik modeli asosida hududlar va tarmoqlar kesimida 2030-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buxoro viloyatida kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash, xizmat ko'rsatish va turizmni rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 12-avgustdagi 287-son qarorining 5-ilovasini shakllantirishda foydalanildi.(O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2026-yil 13-apreldagi 01-04-22-3496-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish 2030-yilga kelib viloyat hududlarida hududiy marketing va klaster siyosatini kuchaytirish asosida ustuvor tarmoqlar bo'yicha iqtisodiy ixtisoslashuv darajasini ifodalovchi Location Quotient (LQ) ko'rsatkichlarining o'rtacha 0,07–0,10 punktga oshishiga imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, ilmiy jurnallarda jami 7 ta, shundan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan respublika ilmiy jurnallarida 4 ta, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Ishning hajmi 175 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikamizda fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangilik va amaliy natijalar bayon etilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va joriy qilinishi ochib berilgan, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi hamda hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Hududiy marketingning nazariy metodologik asoslari va iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni**" deb nomlangan birinchi bobida hududiy marketing tushunchasining mohiyati, vazifalari va tamoyillari tizimli yoritilib, iqtisodiy rivojlanish omillari bilan hududiy marketing o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nazariy asoslangan; Janubiy Koreya, Estoniya, Polsha va Turkiya misolida hududiy marketing strategiyalarining YaIM o'sishi, bandlik va eksport dinamikasiga ta'siri statistik dalillar bilan ko'rsatilgan; O'zbekiston sharoitida yagona ko'rsatkichlar tizimi va ilmiy asoslangan indikatorlar bazasining yetarlicha shakllanmaganligi asosiy ilmiy bo'shliq sifatida aniqlangan.

Marketing nazariyasi dastlab tovar va xizmatlar bozorida iste'molchi ehtiyojlarini almashinuv mexanizmlari orqali qondirish konsepsiyasi sifatida

shakllangan. F.Kotler marketingni notijorat sohalar, jumladan shaharlar, mintaqalar va davlatlar kontekstida rivojlantirib, hududlarning investitsiya, rezident va turistlarni jalb etish uchun aniq qiymat taklifini shakllantirishi zarurligini ta'kidlaydi⁸. 1970–1980-yillardan boshlab hududlar o'rtasida investitsiyalar, malakali ishchi kuchi va sayyohlar uchun raqobat keskinlashdi. M.Porter hududning ustunligi mavjud resurslarni samarali boshqarish va maqsadli safarbar etish sifati bilan belgilanadi, deb ta'kidlaydi⁹. Yevropa amaliyotida shahar va mintaqalarni brendlash, ularning o'ziga xosligini strategik kommunikatsiya orqali ilgari surish keng qo'llanilgan¹⁰.

Hududiy marketing bo'yicha uch asosiy konseptual yo'nalish mavjud. Birinchisi — Kotler, Haider va Rein «hudud mahsuloti» konsepsiyasi: hududni investitsiya, sanoat va turizmni jalb etuvchi ko'p komponentli taklif paketi sifatida ko'rib, segmentlash, pozitsiyalash va marketing miksi vositalari qo'llaniladi¹¹. Ikkinchisi — Ashworth va Voogd yondashuvi: marketing jamoat sektori rejalashtirish instrumenti sifatida, tarixiy meros va shahar identitetini strategiyaning muhim omillari sifatida ko'radi¹². Uchinchisi — Kavaratzis «place branding» konsepsiyasi: brendni faqat vizual atributlar emas, balki boshqaruv amaliyoti, xizmatlar sifati va ko'p darajali kommunikatsiya uyg'unligida shakllanadigan tizim sifatida talqin qiladi¹³. Bu uch yondashuvning metodologik sintezi asosida muallif tomonidan quyidagi ta'rif taklif etildi:

Hududiy marketing — bu ma'muriy-hududiy tuzilma, iqtisodiy ixtisoslashuv, madaniy meros va fuqarolik ishtiroki xususiyatlarini inobatga olgan holda, hududning salohiyatini maqsadli auditoriyalar uchun qiymat taklifiga aylantirish, uni pozitsiyalash, brendlashtirish va strategik kommunikatsiya orqali jozibadorligini oshirishga qaratilgan boshqaruv yondashuvidir.

Hududiy marketing va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi o'zaro ta'sir siklik tizim orqali amalga oshadi: hududiy marketing «start nuqtasi» bo'lib, resurslar oqimi va strategik rivojlanishga yo'l ochadi (1-rasm). Xorijiy tajriba asosida hududiy marketing yondashuvlari to'rtta ustuvor yo'nalish doirasida tizimlashtirildi: territorial brending¹⁴, innovatsion klaster modeli¹⁵, ishtirokchilikka asoslangan model¹⁶ va sanoat-texnologik infratuzilmaga tayanuvchi model¹⁷. O'zbekiston

⁸ Kotler F., Haider D.H., Rein I. Marketing places: Attracting investment, industry, and tourism to cities, states, and nations. — New York: The Free Press, 1993. — 400 p.

⁹ Porter M. E. The Competitive Advantage of Nations. — New York : Free Press, 1990. — 855 p.

¹⁰ Hospers G.-J. Place Marketing in Europe: The Branding the European City // Intereconomics. — 2004. — Vol. 39, no. 5. — P. 271–278.

¹¹ Kotler F., Haider D. H., Rein I. Marketing Places: Attracting Investment, Industry, and Tourism to Cities, States, and Nations. — New York : The Free Press, 1993. — 400 p.

¹² Ashworth G. J., Voogd H. Selling the City: Marketing Approaches in Public Sector Urban Planning. — London : Belhaven Press, 1990. — 205 p.

¹³ Kavaratzis A. From City Marketing to City Branding: Towards a Theoretical Framework for Developing City Brands // Place Branding. — 2004. — Vol. 1, no. 1. — P. 58–73.


¹⁴ Anholt S. Competitive Identity: The New Brand Management for Nations, Cities and Regions. — London : Palgrave Macmillan, 2010. — 192 p.

¹⁵ Porter M. E. Clusters and the New Economics of Competition // Harvard Business Review. — 1998. — Vol. 76. — P. 77–90.

¹⁶ Власова Н. Ю., Куликова Е. С. Маркетинг территории в условиях становления цифровой экономики // Journal of New Economy. — 2018. — Т. 19, № 3. — С. 69–81.

¹⁷ OECD / European Union / EC-JRC. Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide. — Paris : OECD Publishing, 2008. — DOI: 10.1787/9789264043466-en.

sharoitida ushbu instrumentlarni gibridd tarzda uyg'unlashtirish hududiy raqobatbardoshlikni oshirish uchun maqbul yo'nalish sifatida asoslanadi.



1-rasm. Hududiy marketing vositalarining iqtisodiy siklga ta'siri¹⁸

Dissertatsiyaning "**Buxoro viloyati iqtisodiy rivojlanish holati va hududiy marketing salohiyatining tizimli tahlili**" deb nomlangan ikkinchi bobida Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari dinamikasi, tarmoqlar kesimidagi tarkibiy siljishlar va hududlararo tafovutlar kompleks baholangan. LQ, ΔLQ va CAGR indikatorlari asosida ustuvor ixtisoslashuv yo'nalishlari aniqlangan va integral baholash yondashuvi orqali hududiy marketingni maqsadli boshqarish uchun metodik asos shakllantirilgan.

Statistik tahlil viloyat tumanlarida sanoat mahsuloti, xizmatlar hajmi va investitsiyalar aholi jon boshiga ko'rsatkichlari bo'yicha hududlararo differensiallashuvning yuqori darajasini ko'rsatdi: variatsiya koeffitsiyenti sanoat bo'yicha 336,9%, xizmatlar bo'yicha 184,2%, investitsiyalar bo'yicha 288,6% ni tashkil etdi. Bu natijalar hududiy marketing mexanizmini differensial yondashuv asosida takomillashtirish zarurligini asoslaydi.

HUDMI indeksining metodik pozitsiyasi xalqaro analoglardan — EU Regional Competitiveness Index, OECD Regional Well-being framework va place brand tipidagi indekslardan — farqli ravishda tuman va viloyat darajasida iqtisodiy hamda kommunikatsion ko'rsatkichlarni birlashtirgan operativ boshqaruv vositasi ekani bilan asoslanadi.¹⁹

$$HUDMI_Core_t = \frac{Inv_t + Emp_t + SME_t + Trade_t}{4} \quad (1)$$

$$HUDMI_Extended_{2024} = \frac{Inv_{2024} + Emp_{2024} + SME_{2024} + Trade_{2024} + RM_{2024} + BR_{2024}}{6} \quad (2)$$

$$HUDMI = w_1 \times Core + w_2 \times Extended \quad (3)$$

$$X_{norm} = \frac{X - X_{min}}{X_{max} - X_{min}} \quad (4)$$

Hududiy Marketing Samaradorligi Indeksi (HUDMI) ikki qatlamda quriladi: HUDMI_Core — 2020–2024-yillar bo'yicha investitsiya (Inv), bandlik

¹⁸ Muallif ishlanmasi

¹⁹ OECD. Innovation Clusters in the 21st Century: Report for OECD Regional Development. — OECD Publishing, 2017. — 280 p.

(Emp), kichik biznes ulushi (SME) va savdo (Trade) ko'rsatkichlarining yadro dinamikasi; HUDMI_Extended (2024) — Core ga qo'shimcha ravishda raqamli marketing (RM) va hududiy brend (BR) subindekslarini o'z ichiga oladi²⁰ (1-jadval).

1-jadval.

HUDMI arxitekturasini va asosiy manbalar²¹

HUDMI	Qatlam	Subindeks	Tipik ko'rsatkichlar	Manbalar
	Core (2020–2024)	Investitsiya	Yalpi kapital qo'yilma, sanoat invest. ulushi	Milliy statistika, WDI
		Bandlik	Bandlar ulushi, yangi ish o'rinlari	Milliy statistika
		Kichik biznes ulushi	Ko'kning bandlik/daromadidagi ulushi	Milliy statistika
		Savdo	Eksport, xizmatlar savdosi ulushi	Milliy statistika, WDI
	Extended (2024)	Raqamli marketing	Veb-trafik, qamrov, jalb ko'effitsienti	Platforma metrikalari, kontent tahlili
		Joy brendi	Media-qamrov, reputatsion baholar	Media monitoring, ekspert-so'rov

Barcha ko'rsatkichlar minimum–maksimum (Min–Max) usuli asosida normallashtirish 0–1 oralig'iga keltiriladi. Kvadrantli segmentatsiya uchun robust chegara sifatida HUDMI_Core bo'yicha median 0,1634 va HUDMI_Extended bo'yicha median 0,4863 qabul qilindi. RM va BR subindekslarini shakllantirish hamda baholash protokoli 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

HUDMI tarkibidagi RM/BR subindekslarini shakllantirish va baholash protokoli²²

Sub-indeks	Indikator	Baholash manbasi	Ballash mezon	Hisoblash tartibi
RM	Rasmiy veb-sayt mavjudligi	Rasmiy veb-sahifalar (hokimlik, turizm, investitsiya)	0: yo'q; 0,5: to'liq emas; 1: faol	$RM_i = (WS_i + UPD_i + SM_i) / 3$
RM	Yangilanish darajasi	Saytdagi yangiliklar, e'lonlar	0: yangilanmaydi; 0,5: epizodik; 1: muntazam	RM tarkibida o'rtachalanadi
RM	Ijtimoiy tarmoqlardagi faollik	Telegram, Instagram, YouTube va boshqalar	0: kanal yo'q; 0,5: faollik past; 1: tizimli	RM tarkibida o'rtachalanadi
BR	Hududiy brend mavjudligi	Hudud nomi, tarixiy-madaniy resurs, mahsulot brendi	0–3 shkala (yo'q → keng tanilgan)	$BR_i = (BM_i + ID_i + PR_i) / 3$
BR	Identifikatsiya vositalari	Logotip, shior, vizual obraz	0–3 shkala	BR tarkibida o'rtachalanadi

²⁰ OECD/European Union/EC-JRC (2008), Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide, OECD Publishing, Paris, <https://doi.org/10.1787/9789264043466-en>.

²¹ Muallif ishlanmasi

²² Muallif ishlanmasi

RM va BR subindekslarini baholashda 18 nafar ekspert ishtirokida kontent-tahlil va ekspert so'rovi usuli qo'llanildi (2-jadval). Subindekslarning ichki izchilligi: RM uchun Cronbach $\alpha=0,743$; BR uchun $\alpha=0,718$ - Nunnally $\alpha \geq 0,70$ mezonini qondiradi²³. Ekspertlararo ICC: RM=0,712 [95% DI: 0,641–0,782]; BR=0,684 [95% DI: 0,611–0,757] - «o'rtacha-yaxshi» muvofiqlik²⁴. HUDMI_Core va HUDMI_Extended bo'yicha tumanlar reytinglari mos ravishda 3-jadval va 4-jadvalda keltirilgan.

3-jadval.

HUDMI_Core bo'yicha tumanlar reytingi (2020–2024)²⁵

Tuman	2020 y	2021 y	2022 y	2023 y	2024 y	Reyting
Buxoro shahri	0.4871	0.4825	0.5562	0.5153	0.5024	Yuqori
Kogon shahri	0.1847	0.1872	0.2475	0.2212	0.2160	Yuqori
Olot	0.1041	0.1152	0.0576	0.0487	0.0796	Past
Buxoro	0.1515	0.1602	0.1635	0.1276	0.1416	Past
Vobkent	0.0954	0.1030	0.0819	0.0778	0.0791	o`rta
G'ijduvon	0.1291	0.1395	0.1527	0.1611	0.1634	o`rta
Kogon	0.2132	0.2744	0.3592	0.1818	0.2084	Yuqori
Qorako`l	0.0722	0.0878	0.0962	0.1076	0.1707	o`rta
Qorovulbozor	0.8182	0.9512	1.0000	1.0000	0.9867	Yuqori
Peshko`	0.0936	0.0926	0.0934	0.1048	0.1032	o`rta
Romitan	0.3926	0.4032	0.2949	0.2169	0.2055	Yuqori
Jondor	0.0857	0.0762	0.0865	0.0505	0.0885	Past
Shofirkon	0.0527	0.0503	0.0382	0.0278	0.0229	Past

4-jadval.

HUDMI_Extended bo'yicha tumanlar reytingi (2024)²⁶

Tuman	RM_2024	BR_2024	HUDMI_Extended_2024	Reyting
Buxoro shahri	1	1	0.8333	Yuqori
Kogon shahri	0.38	0.37	0.3220	Past
Olot	0	0.37	0.1498	Past
Buxoro	0.69	0	0.2772	Past
Vobkent	0.69	0.69	0.4863	o`rta
G'ijduvon	1	0.69	0.6174	Yuqori
Kogon	1	0.69	0.6328	Yuqori
Qorako`l	0.69	0.69	0.5169	o`rta
Qorovulbozor	1	0.37	0.7856	Yuqori
Peshko`	0.38	0.69	0.3910	Past
Romitan	1	0.37	0.5251	o`rta
Jondor	1	0.37	0.4862	Past
Shofirkon	1	0.37	0.4643	Past


²³ Nunnally J.C. Psychometric Theory. 2nd ed. New York: McGraw-Hill, 1978. 701 p.

²⁴ Koo T. K., Mae M. Y. A Guideline of Selecting and Reporting Intraclass Correlation Coefficients for Reliability Research // Journal of Chiropractic Medicine. — 2016. — Vol. 15, no. 2. — P. 155–163. — DOI: 10.1016/j.jcm.2016.02.012.

²⁵ Muallif ishlanmasi


²⁶ Muallif ishlanmasi

HUDMI_Core va HUDMI_Extended ko'rsatkichlari asosida kvadrantli matritsa tuzildi: median chegaralari (Core: 0,1634; Extended: 0,4863) bo'yicha hududlar to'rtta strategik kvadrantga ajratildi (2-rasm): I kvadrant (Core ↑, Extended ↑ — drayver hududlar): Qorovulbozor, Buxoro shahri, G'ijduvon, Qorako'l, Romitan, Kogon t.; II kvadrant (Core ↓, Extended ↑): Vobkent; III kvadrant (Core ↓, Extended ↓ — ustuvor qo'llab-quvvatlash zarur): Buxoro t., Peshko', Olot, Jondor, Shofirkon; IV kvadrant (Core ↑, Extended ↓ — monetizatsiya zarur): Kogon shahri.



2-rasm. HUDMI ko'rsatkichlari asosida hududlarning kvadrantli segmentatsiyasi, 2024-yil²⁷

HUDMI hududiy siyosat uchun «diagnostika–ustuvorlashtirish–intervensiya» zanjirini shakllantiruvchi muhim analitik vosita sifatida xizmat qiladi. Mazkur indeks hududlarning iqtisodiy va kommunikatsion salohiyatini kompleks baholash, mavjud tafovutlarni aniqlash hamda resurslarni ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirish imkonini beradi. HUDMI natijalari LQ dinamikasi, ya'ni LQ_2024, ΔLQ va CAGR ko'rsatkichlari bilan triangulyatsiya qilinganda, hududlar va tarmoqlar bo'yicha «barqaror», «yangi», «pasayuvchi» va «zaif» statusli yo'nalishlarni ajratish imkoniyati yuzaga keladi (3-rasm).



3-rasm. Buxoro viloyati tumanlari bo'yicha HUDMI–LQ kartografik triangulyatsiyasi va strategik statusi²⁸

²⁷ Muallif ishlanmasi

Tumanlarning strategik pozitsiyasi (2021–2024 y.)²⁹

Guruh	Tumanlar	Asosiy dalillar (LQ, Δ LQ, CAGR)
I. Barqaror kuchli hududlar	Qorovulbozor, Peshko`, Kogon t., Jondor	Qorovulbozor: sanoat LQ=35.96; Q.X LQ=2.39; kichik biznes CAGR=+0.43. Peshko`: Q.X LQ=1.51; Δ LQ=+0.08.
II. Yangi shakllanayotgan hududlar	Kogon shahri, Vobkent	Kogon shahri: Q.X LQ 0.03→0.16 (CAGR=+0.75). Kichik biznes: LQ 1.37→3.07 (Δ LQ=+1.70).
III. Pasayish xavfi yuqori hududlar	Buxoro shahri, G'ijduvon, Romitan, Shofirkon, Olot	Xizmatlar LQ qisqarish: Buxoro shahri 2.71→1.87 (Δ LQ = -0.73). Olot xizmatlar: 0.73→0.44 (Δ LQ=-0.29).
IV. Zaif diversifikatsiyalangan hududlar	Buxoro tumani, Qorako`l	Buxoro t.: xizmatlar 0.80→0.40, Δ LQ=-0.39; kichik biznes: 0.81→0.43. Qorako`l: barcha tarmoqlarda pasayish.


Dissertatsiyaning "**Buxoro viloyati iqtisodiy rivojlanishida hududiy marketing mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari**" deb nomlangan uchinchi bobida HUDMI–LQ Mixed Model va ekonometrik tahlil natijalariga asoslanib, hududiy marketing mexanizmini takomillashtirish bo'yicha tashkiliy, iqtisodiy va raqamli instrumentlar majmui ishlab chiqilgan.

HUDMI–LQ Mixed Model tarmoqlar ixtisoslashuvi va hududiy rivojlanish dinamikasini birlashtirib baholovchi gibrid diagnostik yondashuv sifatida taklif etiladi. Mazkur model hududiy marketing salohiyatini ifodalovchi HUDMI ko'rsatkichlari bilan hudud iqtisodiyotida muayyan tarmoqning nisbiy ustunligini aniqlovchi LQ indikatorini o'zaro bog'liq holda tahlil qilish imkonini beradi. Modelning nazariy asosi M. Porterning klaster konsepsiyasiga, uslubiy asosi esa OECD/Eurostat metodikalarida qo'llaniladigan hududiy ixtisoslashuv va o'sish dinamikasini baholash mezonlariga tayangan bo'lib, bunda $LQ \geq 1,10$ yuqori ixtisoslashuvni, $CAGR > 0$ esa tarmoq bo'yicha ijobiy dinamik o'sishni ifodalaydi va amaliy qarorlar qabul qilishni qo'llab-quvvatlaydi.

Taklif etilayotgan besh bosqichli boshqaruv zanjiri hududiy marketing qarorlarini bosqichma-bosqich asoslashga xizmat qiladi (4-rasm). Birinchi bosqichda HUDMI_Core va HUDMI_Extended orqali hududning bazaviy iqtisodiy hamda kommunikatsion salohiyati baholanadi; ikkinchi bosqichda LQ signali asosida tarmoq ixtisoslashuvi tekshiriladi; uchinchi bosqichda HUDMI kvadrantlari va LQ statuslari kombinatsiyasi orqali triangulyatsiya amalga oshiriladi. To'rtinchi bosqichda har bir kvadrantga mos strategik paketlar tanlanadi: I-kvadrant uchun eksport va miqyoslash, II-kvadrant uchun diversifikatsiya va iqtisodiy bazani mustahkamlash, III-kvadrant uchun raqamli transformatsiya, IV-kvadrant uchun esa institutsional islohotlar ustuvor yo'nalish sifatida belgilanadi. Beshinchi bosqichda KPI–monitoring–risk sikli orqali tanlangan strategiyalarning ijrosi, natijadorligi va ehtimoliy xavflari doimiy boshqarib boriladi. KPI tizimi va monitoring indikatorlari 6-jadvalda keltirilgan.

²⁸ Muallif ishlanmasi

²⁹ Muallif ishlanmasi



4-rasm. Buxoro viloyatida hududiy marketingni boshqarishning HUDMI Core–Extended va LQ triangulyatsiyasiga asoslangan integrallashgan modeli³⁰

6-jadval.

Integrallashgan model bo'yicha KPI tizimi va monitoring indikatorlari³¹

Blok	KPI yo'nalishi	o'lchov birligi	Amaliy izoh
ECON bloki	Investitsiya oqimi; yangi ish o'rinlari; sanoat qo'shilgan qiymati	mlrd so'm; dona; foiz	Eksport va miqyoslash paketida asosiy natija ko'rsatkichlari
COMM bloki	Turist oqimi; servis sifati indeksi; brend xabardorligi	ming kishi; ball; foiz	Buxoro shahri va Romitan kabi xizmatlar yo'nalishida tanqidiy monitoring ko'rsatkichlari
DIGI bloki	Rasmiy platformalarga tashrif; qidiruvdagi ko'rinishchanlik; SMM qamrovi va konversiya	tashrif soni; indeks; foiz	Raqamli transformatsiya paketining tezkor KPIlari
INST bloki	Ruxsat berish jarayonlari muddati; davlat xizmatlari ulushi; biznes uchun institutsional qulaylik	kun; foiz; indeks	Institutsional islohot paketining natijasini o'lchash indikatorlari
LQ bloki	LQ darajasi; ΔLQ ; CAGR; LQ status	ko'effitsiyent; ko'effitsiyent; foiz; toifa	Ixtisoslashuv dinamikasini kuzatish, pasayuvchi statuslarda tezkor reaksiya choralari ishga tushirish

Ekonometrik tahlil uchun 2016–2024-yillar bo'yicha Buxoro viloyatining 13 ta tuman va shaharlari hamda 3 ta asosiy tarmoq (sanoat, xizmatlar, qishloq xo'jaligi) kesimidagi panel ma'lumotlar bazasi shakllantirildi (N=351 kuzatuv). Bog'liq o'zgaruvchi — tarmoq bo'yicha ixtisoslashuv darajasi $\ln(LQ)$. Multikollinearlik VIF tahlili: o'rtacha $VIF=1,76$ (barcha ko'rsatkichlar $VIF<5$ chegarasidan past). Fixed Effects modeli Hausman testi asosida tanlandi: $\chi^2(4)=24,73$, $p<0,001$. Panel regressiya natijalari 7-jadvalda keltirilgan.

³⁰ Muallif ishlanmasi

³¹ Muallif ishlanmasi

$$\ln(LQ_{it}) = \alpha + \beta_1 \ln(Inv_pc_{it}) + \beta_2 \ln(Pop_{it}) + \beta_3 Internet_{it} + \beta_4 Cluster_{it} + \mu_i + \lambda_t + \varepsilon_{it} \quad (5)$$

7-jadval.

Panel regressiya natijalari (bog'liq o'zgaruvchi: $\ln(LQ)$)

o'zgaruvchi	Koeffitsiyent β	t-stat	Iqtisodiy va marketing talqini
$\ln(Inv_pc)$	-0,0244	-2,11	Investitsiyalar hududiy iqtisodiy bazani kengaytirib, ayrim tarmoqlarda diversifikatsiya ta'sirini kuchaytiradi. Bu holat hududning faqat bitta tarmoqqa bog'lanib qolmasdan, turli iqtisodiy yo'nalishlarda rivojlanish imkoniyatini oshiradi.
$\ln(Pop)$	0,9822	6,84	Aholi soni va bozor sig'imi tarmoq ixtisoslashuvining mustahkamlanishiga xizmat qiladi. Bu ko'rsatkich hududiy marketingda maqsadli auditoriya, ichki talab va mehnat resurslari salohiyatini baholashda muhim ahamiyatga ega.
